
AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI



1. Markazlashtirish.

Aholini ro'yxatga olishni boshqarishning qat'iy markazlashtirilishi ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy shartlaridan biridir.

2. Aholini ro'yxatga olishning muntazamligi.

BMT tavsiyalariga ko'ra, aholini ro'yxatga olish 10 yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi belgilangan.

3. Aholini ro'yxatga olish maxsus tayyorlangan mutaxassislar - hisobchilar tomonidan o'tkazilishi.

Mazkur tadbirni amalga oshirish uchun ko'p miqdorda maxsus xodimlar yollanadi, ularning tarkibiga ziyolilar, talabalar ham kiritilishi mumkin.

4. Aholini ro'yxatga olishni aniq bir muddatda o'tkazish.

Bu tadbirni amalga oshirishga odatda 10-12 kun talab etiladi. Aholini ro'yxatga olish bir necha kun davomida o'tkazilsa ham, ma'lumotlar aniq bir vaqtda - ko'pincha aholini ro'yxatga olishning birinchi kunining 00-00 soatdagi holati bo'yicha qayd etiladi.

Bu aholini ro'yxatga olishning nozik vaqti, deb ham ataladi.

[Бизни ижтимоий тармоқларда кузатинг](#)

[Facebook,](#)

2022-03-30 19:48:05